

Navoiy viloyatida o' rta maxsus va professional ta'lim

2025/2026- o' quv yili boshiga

- I. Faoliyat yuritayotgan o' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
- II. O' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar
- III. O' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o' quvchilar
- IV. O' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V. O' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o' rindoshlarsiz)
- VI. O' rta maxsus va professional ta'lim bo' yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan o' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari

Navoiy viloyatida so' nggi yillarda o' rta maxsus va professional ta'lim tizimida sezilarli tarkibiy o' zgarishlar kuzatilgan. O' zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, kasbiy ta'lim tashkilotlari turlari maqbullashtirilgan: kasb-hunar maktablari va kollejlarda texnikumlar tashkil etilgan.

Faoliyat yuritayotgan o' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o' quv yili boshiga, birlik)



2025/2026- o' quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan akademik litseylar soni **3 tani** tashkil etgan va so' nggi besh yil davomida o' zgarishsiz qolgan.

¹⁾ O' zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o' quv yili uchun texnikumlar bo' yicha ko' rsatkichlarni tarkibiy o' zgarishlarni hisobga olgan holda ko' rib chiqish lozim.

Texnikumlar soni esa, aksincha, 2024/2025- o' quv yiliga nisbatan **2,1 barobarga**, yoki **14 taga** oshgan va 2025/2026- o' quv yili boshiga **27 tani** tashkil etgan. Mazkur o'zgarishlar kasbiy ta'lim tashkilotlari turlarining maqbullashtirilganligi bilan bog'liq bo'lib, buning natijasida ilgari o' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining umumiy sonida hisobga olingan kasb-hunar maktablari va kollejlari texnikumlariga aylantirilgan.

Faoliyat yuritayotgan o' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
sonining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026- o' quv yili boshiga, birlik)

	Akademik litseylar		Texnikumlar	
	Jami	umumiy soniga nisbatan % da	Jami	umumiy soniga nisbatan % da
Navoiy viloyati	3	100,0	27	100,0
<i>shaharlar:</i>				
Navoiy	3	100,0	5	18,6
Zarafshon	-	-	3	11,1
G'ozg'on	-	-	1	3,7
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	-	-	3	11,1
Konimex	-	-	1	3,7
Qiziltepa	-	-	3	11,1
Navbahor	-	-	3	11,1
Nurota	-	-	2	7,4
Tomdi	-	-	-	-
Uchquduq	-	-	2	7,4
Xatirchi	-	-	4	14,8

Akademik litseylarning barchasi Navoiy shahrida qayd etilgan – **3 ta**. Texnikumlar soni bo'yicha Navoiy shahrida **5 ta**, Xatirchi tumanida **4 ta**, Zarafshon shahrida, Karmana, Qiziltepa va Navbahor tumanlarida har birida **3 tadan**, Nurota va Uchquduq tumanlarida har birida **2 tadan**, Go'zg'on shahrida va Konimex tumanida har birida **1 tadan** qayd etilgan.

Mavzuga doir ko' rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan o' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari \(jami\)](#)


[Akademik litseylar soni](#)

[Texnikumlar soni](#)

II. O' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar

Viloyatda o' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga o' quvchilarni qabul qilish bo' yicha umumiy o' sish kuzatilgan. 2025/2026- o' quv yili boshiga qabul qilingan o' quvchilar soni 2024/2025- o' quv yiliga nisbatan **3,0 ming nafarga**, yoki **46,9 % ga** oshgan va **9,4 ming nafarni** tashkil etgan.

Qabul qilingan o' quvchilar soni
(tegishli o' quv yili boshiga, ming kishi)



2025/2026- o' quv yili boshiga akademik litseylarga qabul qilingan o' quvchilar soni **0,6 ming nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o' quv yiliga nisbatan deyarli o' zgartmagan. Yuqorida qayd etilgan tarkibiy o' zgarishlar munosabati bilan texnikumlarga qabul qilinganlar soni esa oldingi o' quv yiliga nisbatan **4,4 barobarga**, yoki **6,8 ming nafarga** oshgan va **8,8 ming nafarga** yetgan.

Qabul qilingan o' quvchilar sonining
shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026- o' quv yili boshiga, ming kishi)

	Akademik litseylar			Texnikumlar		
	jami	qiz bolalar	o' g' il bolalar	jami	qiz bolalar	o' g' il bolalar
Navoiy viloyati	0,6	0,3	0,3	8,8	4,0	4,8
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	0,6	0,3	0,3	2,0	1,0	1,0
Zarafshon	-	-	-	1,1	0,5	0,6
G'ozg'on	-	-	-	0,1	0,0	0,1
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	-	-	-	0,8	0,3	0,5
Konimex	-	-	-	0,3	0,1	0,2
Qiziltepa	-	-	-	1,1	0,4	0,7
Navbahor	-	-	-	1,0	0,5	0,5
Nurota	-	-	-	0,5	0,3	0,2
Tomdi	-	-	-	-	-	-
Uchquduq	-	-	-	0,7	0,3	0,4
Xatirchi	-	-	-	1,2	0,6	0,6

¹⁾ O' zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o' quv yili uchun texnikumlar bo' yicha ko' rsatkichlarni tarkibiy o' zgarishlarni hisobga olgan holda ko' rib chiqish lozim.

Akademik litseylarga qabul qilingan o' quvchilar soni bo' yicha barchasi Navoiy shahriga to' g'ri keladi (**0,6 ming nafar**). Texnikumlarga qabul qilingan o' quvchilarning eng yuqori qismi Navoiy shahrida (**2,0 ming nafar**), eng past ko' rsatkich Go' zg' on shahrida (**0,1 ming nafar**) kuzatilgan.

Akademik litseylarga qabul qilingan o' g' il bolalar va qiz bolalar ulushi teng bo' lgan va har biri **50,0 % ni** tashkil etgan. Texnikumlarga qabul qilingan o' g' il bolalar ulushi qiz bolalar ulushidan yuqori bo' lgan va **54,5 % ni** tashkil etgan.


Mavzuga doir ko' rsatkichlar:

[O' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o' quvchilar soni \(jami\)](#)

III. O' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o' quvchilar

Navoiy viloyatida so' nggi yillarda o' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o' quvchilar umumiy sonining o' sishi kuzatilgan. 2025/2026- o' quv yili boshiga ularning soni 2024/2025- o' quv yiliga nisbatan **3,0 ming nafarga**, ya' ni **22,6 % ga** oshgan va **16,3 ming nafarni** tashkil etgan.

Tahsil olayotgan o' quvchilar soni
(tegishli o' quv yili boshiga, ming kishi)



2025/2026- o' quv yili boshiga akademik litseylarda tahsil olayotgan o' quvchilar soni **1,2 ming nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o' quv yiliga nisbatan deyarli o' zgarmagan. 2025/2026- o' quv yili boshiga texnikumlarda tahsil olayotgan o' quvchilar soni **15,1 ming nafarni** tashkil etgan va **10,4 ming nafarga**, yoki **3,2 barobarga** oshgan.

¹⁾ O' zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o' quv yili uchun texnikumlar bo' yicha ko' rsatkichlarni tarkibiy o' zgarishlarni hisobga olgan holda ko' rib chiqish lozim.

Tahsil olayotgan o' quvchilar sonining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026- o' quv yili boshiga, ming kishi)

	Akademik litseylar			Texnikumlar		
	jami	qiz bolalar	o' g' il bolalar	jami	qiz bolalar	o' g' il bolalar
Navoiy viloyati	1,2	0,5	0,7	15,1	7,1	8,0
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	1,2	0,5	0,7	3,7	2,2	1,5
Zarafshon	-	-	-	2,0	1,0	1,0
G'ozg'on	-	-	-	0,1	0,0	0,1
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	-	-	-	1,2	0,4	0,8
Konimex	-	-	-	0,6	0,2	0,4
Qiziltepa	-	-	-	1,8	0,6	1,2
Navbahor	-	-	-	1,7	0,7	1,0
Nurota	-	-	-	0,8	0,4	0,4
Tomdi	-	-	-	-	-	-
Uchquduq	-	-	-	1,0	0,4	0,6
Xatirchi	-	-	-	2,2	1,2	1,0

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o' quvchilarning barchasi Navoiy shahrida (**1,2 ming nafar**) qayd etilgan. Texnikumlardagi o' quvchilarning eng yuqori soni Navoiy shahrida (**3,7 ming nafar**) va Xatirchi tumanida (**2,2 ming nafar**) kuzatilgan. Texnikumlarda o' quvchilarning eng kam soni esa G'ozg'on shahrida (**0,1 ming nafar**), Konimex (**0,6 ming nafar**) va Nurota tumanlarida (**0,8 ming nafar**) kuzatilgan.

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o' g' il bolalar ulushi qiz bolalar ulushidan yuqori (**58,3 %**) bo' lgan. Texnikumlar bo' yicha ham o' g' il bolalar ulushi qiz bolalar ulushidan yuqori (**53,0 %**) bo' lganligi kuzatilgan.

Mavzuga doir ko' rsatkichlar:


[Texnikumlarda tahsil olayotgan o' quvchilar soni \(jami\)](#)

[Akademik litseylarda tahsil olayotgan o' quvchilar soni \(jami\)](#)

IV. O' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

Navoiy viloyatida 2025- yilda o' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari umumiy soni **6,0 ming nafarni** tashkil etgan va 2024- yilga nisbatan **1,5 ming nafarga**, ya'ni **20,0 % ga** qisqargan.

Bitiruvchilar soni
(tegishli yil uchun, ming kishi)



2025- yilda akademik litseylarning bitiruvchilari soni **0,6 ming nafarni** tashkil etgan va 2024- yilga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolgan. Texnikumlarning bitiruvchilari soni esa **5,4 ming nafarni** tashkil etgan va **2,1 ming nafarga**, ya'ni qariyb **1,6 barobarga** oshgan.

Bitiruvchilar sonining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2025- yil uchun, ming kishi)

	Akademik litseylar			Texnikumlar		
	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar
Navoiy viloyati	0,6	0,2	0,4	5,4	2,2	3,2
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	0,6	0,2	0,4	1,3	0,6	0,7
Zarafshon	-	-	-	0,7	0,2	0,5
G'ozg'on	-	-	-	0,1	0,0	0,1
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	-	-	-	0,3	0,1	0,2
Konimex	-	-	-	0,3	0,1	0,2
Qiziltepa	-	-	-	0,6	0,2	0,4
Navbahor	-	-	-	0,6	0,3	0,3
Nurota	-	-	-	0,4	0,1	0,3
Tomdi	-	-	-	-	-	-
Uchquduq	-	-	-	0,3	0,1	0,2
Xatirchi	-	-	-	0,8	0,5	0,3

Akademik litseylar bitiruvchilarining barchasi Navoiy shahrida (**0,6 ming nafar**) qayd etilgan. Texnikumlar bitiruvchilarining eng yuqori soni Navoiy shahrida (**1,3 ming nafar**) kuzatilgan. Texnikumlar bitiruvchilarining eng past ko'rsatkichlari esa G'ozg'on shahrida (**0,1 ming nafar**) kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Akademik litseylar, texnikumlarning bitiruvchilari soni \(jami\)](#)

[Akademik litseylar, texnikumlarning bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)


[Akademik litseylar, texnikumlarning bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)

¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

V. O' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o' rindoshlarsiz)

2025/2026- o' quv yili boshiga Navoiy viloyatining o' rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan pedagog xodimlar (o' rindoshlarsiz) umumiy soni **1 126 nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o' quv yiliga nisbatan **170 nafarga**, ya'ni **17,8 % ga** oshgan.

Pedagog xodimlar (o' rindoshlarsiz) soni
(tegishli o' quv yili boshiga, kishi)



2025/2026- o' quv yili boshiga akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o' rindoshlarsiz) soni **134 nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o' quv yiliga nisbatan **7 nafarga**, ya'ni **5,5 % ga** oshgan. Shuningdek, texnikumlardagi pedagog xodimlar (o' rindoshlarsiz) sonining sezilarli o' sishi kuzatilgan. Ularning soni **992 nafarni** tashkil etgan va **667 nafarga**, ya'ni **3 barobarga** oshgan.

¹⁾ O' zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o' quv yili uchun texnikumlar bo' yicha ko' rsatkichlarni tarkibiy o' zgarishlarni hisobga olgan holda ko' rib chiqish lozim.

Pedagog xodimlar (o' rindoshlarsiz) sonining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026- o' quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar			Texnikumlar		
	jami	ayollar	erkaklar	jami	ayollar	erkaklar
Navoiy viloyati	134	79	55	992	690	302
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	134	79	55	229	194	35
Zarafshon	-	-	-	131	104	27
G'ozg'on	-	-	-	7	3	4
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	-	-	-	67	52	15
Konimex	-	-	-	35	24	11
Qiziltepa	-	-	-	131	83	48
Navbahor	-	-	-	98	63	35
Nurota	-	-	-	57	27	30
Tomdi	-	-	-	-	-	-
Uchquduq	-	-	-	59	44	15
Xatirchi	-	-	-	178	96	82

Akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o' rindoshlarsiz) sonining barchasi Navoiy shahrida (**134 nafar**) qayd etilgan. Texnikumlardagi pedagog xodimlar (o' rindoshlarsiz) sonining eng yuqori ko' rsatkichlari esa Navoiy shahrida (**229 nafar**) va Xatirchi tumanida (**178 nafar**) kuzatilgan. Boshqa shahar va tumanlarga nisbatan texnikumlarda pedagog xodimlar (o' rindoshlarsiz) sonining eng past ko' rsatkichlari G'ozg'on shahrida (**7 nafar**) kuzatilgan.

Akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o' rindoshlarsiz) orasida ayollarning ulushi (**59,0 %**) tashkil etgan. Texnikumlar bo' yicha ham ayollar ulushi erkaklar ulushidan yuqori (**69,6 %**) bo' lgan. Texnikumlar bo' yicha Navoiy shahrida (**84,7 %**) va Zarafshon shahrida (**79,4 %**) ayollar ulushi erkaklar ulushidan yuqori bo' lgan. G'ozg'on shahrida esa erkak o' qituvchilar ulushi (**57,1 %**) ayollar ulushidan (**42,9 %**) yuqori bo' lgan. Nurota tumanida ham erkak o' qituvchilar ulushi (**52,6 %**) ayollar ulushidan (**47,4 %**) yuqori bo' lganligi kuzatilgan.

Mavzuga doir ko' rsatkichlar:

[Akademik litseylardagi oliy ma'lumotli pedagog xodimlar soni](#)

VI. O' rta maxsus va professional ta'lim bo' yicha uslubiy tushuntirishlar va metama' lumotlar

O' rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to' qqiz yillik tayanch o' rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo' naltirilgan ta'lim olishini ta' minlaydi.

O' rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o' rta, o' rta maxsus, boshlang' ich professional va o' rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to' lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo' lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo' yicha amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida o' rta maxsus va professional ta'lim bo' yicha statistik ma' lumotlar **1 o' rta ta'lim shakli** "O' rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining hisoboti" yillik statistika hisoboti ma' lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur hisobot akademik litseylar va texnikumlar tomonidan taqdim etiladi.

O' rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining statistika hisoboti qabul qilinganlar, tahsil olayotganlar, bitiruvchilar, pedagog xodimlar soni, shuningdek, o' rta maxsus va professional ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko' rsatkichlar to' g' risidagi ma' lumotlarni o' z ichiga oladi. Statistik ma' lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi. Qabul qilinganlar, tahsil olayotgan o' quvchilar, pedagog xodimlar soni va moddiy-texnika bazasi kabi ko' rsatkichlar o' quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o' tgan yil yakunlariga asosan ko' rsatiladi.

Jamlangan ma' lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo' yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO-2011](#)

[MSKO-O 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Navoiy viloyati
statistika boshqarmasi
Aholi turmush darajasi va
ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Manzil: Navoiy shahar,
Amir Temur ko' chasi, 4
El. manzil: nv@navstat.uz
Tel.: 79-223-54-98

